

**UrDU O‘zbek tilshunosligi kafedrası
dotsenti, PhD
Alimova Shahnoza Maqsudovna
taqrizi ostida**

Qabulova Dilnoza Rustamovna
Urganch davlat universiteti tayanch
doktoranti, O‘zbekiston,
Email: dilnozarustamovna@urdu.uz

QIMMATBAHO TOSHLAR NOMI BILAN BOG‘LIQ AYOL ISMLARINING LISONIY XUSUSIYATLARI

ANNOTATSIYA: Ushbu maqolada tabiat bilan bog‘liq ismlar qatorida qimmatbaho toshlar nomi bilan bog‘liq ayol ismlarining lisoniy xususiyatlari haqida so‘z yuritilgan bo‘lib, toshlarning go‘zalligi, jilosi, qimmatbaholigi motivi asosidagi, shuningdek, qimmatbaho metal nomlaridan yuzaga kelgan ayol ismlari semantik jihatdan tahlilga tortilgan.

KALIT SO‘ZLAR: ismlar, ayol ismlari, antroponimlar, qimmatbaho tosh nomlari, o‘zbek ismlari, motiv, mintaqaviy antroponimlar.

KIRISH. O‘zbeklarda qadim-qadimdan chaqaloqning ismi baxt va omadga bog‘liq, ism inson hayotida muhim ahamiyatga ega deb qaraladi. Ism bola tabiatiga mos tushmasa, u kasalikka chalinaveradi, yaxshi inson chiqmaydi, degan qarashlar ham mavjud bo‘lgan. Vaqtlar o‘tib avlodlar almashib, fikrlar ham, odatlar ham zamonga va odamlar dunyoqarashiga mos tarzda o‘zgarib boradi va, albatta, bu o‘zgarishlar ham tilda namoyon bo‘ladi.

Bir qator ismlarda chaqaloq tug‘ilgan paytda tabiatning biror hodisasi yuz berayotganligi tasvirlanadi: Yomg‘irboy, Yomg‘irchi, Yog‘inboy; Jalaboy; Yildirim (Chaqmoq); Oydin; Dovulboy, Dovulli; Do‘lboy, Do‘lchi; Oyto‘ldi, Oyto‘liq; Qirovboy (Shudring); Qorbola, Qoryog‘di, Qoryigit, Qorkeldi, Qorli va boshqalar¹. Shuningdek, quyosh, oymomo, yulduz, sayyora, daryo, dengiz kabi tabiat ne‘matlari, uchqun, yashin, dovul, chaqmoq, to‘fon, toshqin kabi tabiat hodisalari ham atoqli otga aylangan va o‘zbek ismlari tarkibiga kirgan. Turkman tili tarixi bo‘yicha qimmatli tadqiqotlarni amalga oshirgan Z.B.Muhammedova ham bunday ismlar haqida o‘z fikrini shunday bildirgan edi: “Bizningcha, eng qadimiy nomlar sifatida, tabiat hodisalari, quyosh, oy, o‘simliklar va hayvonlar nomlariga borib taqaladigan antroponimlarni hisoblash kerak”².

Qozoq xalq antroponimikasini tadqiq qilgan tilshunos Farida Ashimxanova bu xususda quyidagi fikrlarni ilgari surgan: “Ism farzand tug‘ilgandan yetti kun o‘tib qo‘yiladi. Dastlabki ismlar qulay va kundalik ishlatiladigan so‘zlardan tanlanadi. Masalan: Bo‘ribay, Qo‘ylibay, Jetibay, Altin, Kumis, Kumisbek, Bektay, Baris, Qutjan, Temirbek, Kunbek va hokazo. Ko‘rinib turganidek, mazkur ismlarning qo‘yilishida etnomadaniy motivlar mavjud. Shuningdek, oy, quyosh, tog‘, daryo, ko‘l kabi tabiiy jismlarga topinish bilan bog‘liq mifologik tushunchalar

¹ Fathiddinova I. Antroponimlar lingvomadaniy kod sifatida. «Zamonaviy dunyoda innovatsion tadqiqotlar: Nazariya va amaliyot» nomli ilmiy, masofaviy, onlayn konferensiya materiallari. –Toshkent. 2023. – B.11-12.

² Мухаммедова З.Б. Исследование по истории туркменского языка XI-XIV вв. –Ашхабад, 1973. –Б.45.

negizida shakllangan ismlardir: Aysulu, Ayxan, Ayday, Kunay, Kunbek, Aykun, Tautay, Taubay, Ko‘lbay, Ko‘ltay, Bo‘ribay va boshqalar”³.

MUHOKAMA. Tabiat bilan bog‘liq ismlar ayol ismlari orasida ham ko‘pchilikni tashkil qiladi. Biz tabiat bilan bog‘liq ismlar qatorida, ayniqsa, qimmatbaho toshlar bilan bog‘liq ismlar diqqatimizni tortdi. Kishilar qadimiy davrlardan beri ba‘zi nodir metallar, ma‘dan, toshlar, masalan, dur, zumrad, oltin, la‘l, marvarid, marjon, lojuvard, yoqut va boshqalar chaqaloqni kasalliklardan, balo-ofatlardan asraydi deb bilishgan. Mana shu e‘tiqodga ko‘ra bolalarga (ko‘proq qiz farzandlarga) Durdona, Durbek, Zumrad, Gavhar, Oltinoy, Marvarid, Yoqutoy, Marjonbibi, La‘lixon kabi ismlar berilgan. Keyinchalik bu nomlar go‘zallik, nafosat, azizlik, qadr-qimmat ma‘nolarini ham ifodalaydigan bo‘lgan. Ushbu ismlar Xorazm mintaqaviy antroponimikasida quyidagi shakllarda uchraydi: Zumrad, Brilliant, Yoqutjon, Olmos, Marjona, Marvarid, Durdona, Feruza, Gavhar, Oltin, Kumush kabi. Dastlab qimmatbaho toshlarning go‘zalligi, jilosi, qimmatbaholigi motivi asosidagi antroponimlarni ko‘rib chiqsak. Masalan: **Zumrad** – yashil tusli qimmatbaho tosh, zumraddek qimmatli, bebaho, noyob, zebo, latofatli, suluv qiz yoki ko‘k ko‘zli qiz ma‘nolariga ega. Zumradoy, Zumradbonu, Zumradxon shakllarida o‘zbek tilida uchraydi. Xorazmda esa Zumrad shaklida qo‘llanib, Zummi, Zumush kabi qisqargan variantlarga ega.

Yoqutjon – qizil rangli qimmatbaho toshning go‘zalligi motividan shakllangan. Turkiy xalqlar yoqut kishini turli kasalliklardan asraydi, davo bo‘ladi deb hisoblaganlar. Shundan kelib chiqib, odamlar dardiga malham bo‘luvchi, dardkash, qalblarga shifo beruvchi ma‘nosida ham qo‘yiladi. Xorazmda Yokichchan, Yokijjan, Yakitjan shakllarida fonetik variantlarda uchraydi.

Feruza – baxtli, iqboli baland, to‘leyi porloq, saodatli qiz yoki firuza (ko‘k tusli tovlanuvchi qimmatbaho tosh)dek aziz, qimmatli, qadrlı, bebaho, chiroyli, zebo, nafis; nurli nur sochuvchi ma‘nolariga ega. Bu XX asrning 2-yarmida urfga kira boshlagan. Zamonaviy antroponimikada ham e‘tibordan chetda qolayotgani yo‘q.

Brilliant – O‘zbek ismlari lug‘atida ham o‘zbek ismlari.com saytida ham bu ismni kuzatmadik. Lekin Xorazmda bu ism mavjud bo‘lib, albatta bu ism brilliant toshining qimmatbaholigi-yu jozibasining go‘zalligi motivi asosida shakllangani ajab emas.

Gavhar – dur, marvariddek bebaho qiz yoki asl, aslzoda ma‘nolariga ega. Gavhargul, Gavharoy, Gavharxon, Gavhara, Gavharzod, Gulgavhar, Gavharbonu, Gavharbibi, Gavharniso, Gavhartosh, Gavharshod, Gavharoyim, Mohigavhar, Gavharnigor, Gavharposhsha shakllarida uchraydi. Xorazmda Gävār/Gövār kabi qisqargan shakllarda ishlatiladi.

Durjon – bu ism o‘zbek ismlar lug‘atlarida o‘g‘il bola ismi sifatida qayd qilinadi⁴, lekin Xorazmda bu ism ayollar ismi hisoblanadi, bunga misollar anchagina. Ism durdek aziz, suyukli, qimmatli bo‘lsin deya qo‘yiladi. Shuningdek bu ismning Xorazmda Durxanim, Durposhsha shakllari uchraydi.

Shuningdek, Durdona, Marjona, Marvarid kabi ismlar ham XX asr oxirlariga kelib antroponimika tarkibiga kirib keldi, ushbu ismlar o‘zbek antroponimikasida umumiy ravishda

³ Ашимханова Ф.М. Қазақ тилиндеги антропонимдердинг лингвомедени жуйеси. Филол. фанлари канд. ...дисс. Алматы, 2007. –Б.18.

⁴ Бегматов Э. Ўзбек исмлари маъноси. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси давлат илмий нашриёти, 1998. – Б.119.

ishlatiladi. **Durdona** – inju donasi, a’lo marvarid; eng aziz, qadrli, chiroyli, nafis, suluv qiz ma’nolariga; **Marvarid** – dur, inju; qimmatli, bebaho qiz ma’nolariga; **Marjona** – dur, inju, marvaridlar tizimi, qizil rangli yirik munchoq, marjondek qimmatbaho, latofatli, go’zal, yorqin, zebo va suluv qiz ma’nolariga ega. Bu ismlar nafaqat qimmatbaho toshlarning nomi bo’lganligi uchun, balki jarangdor eshitilganligi uchun ham ota-onalarni o’ziga jalb qilib kelmoqda. Shuningdek, **Olmos** ismi ham o’zbek ismlari tarkibida erkaklar va ayollar ismi, deb qayd qilingan bo’lib, lekin Xorazm antroponimikasida bu ism ishlatilmaydi.

Qimmatbaho metal nomlari ham nominatorlarni o’ziga jalb qilib kelgan. Masalan, **Oltin** ismi, butun turkiy xalqlarda antroponim sifatida nafaqat ayollarga, balki erkaklarga ham qo’yilib kelingan. Oltin – tilladek qimmatli, aziz inson bo’lsin, deya qizlarga qo’yiladi. O’zbek ismlari lug’atida “oltin” asosida hosil qilingan 19 antroponim mavjud bo’lib, shundan 10 tasi ayol ismi, 9 tasi erkaklar ismi sifatida qayd qilingan. Xorazm antroponimikasida Oltin, Oltinoy shakllarida ayollar ismi sifatida ishlatiladi. Xorazmda erkaklarga bu ism ishlatilmaydi.

Kumush – kumushdek qadrli, qimmatbaho, e’tiborni tortuvchi qiz yoki oq yuzli, oq badan, nafis, go’zal qiz ma’nolariga ega. Kumushbibi, Kumushoy, Kumushxon, Oykumush, Oqkumush, Jonkumush, Zarkumush kabi shakllari mavjud bo’lib, Xorazmda Kumushoy shakli faol ishlatiladi. O’zbek tili izohli lug’atida ham kumush so’zining to’rtinchi ma’nosi aynan xotin-qizlar ismi sifatida qayd qilingan⁵.

XULOSA. Xullas, mintaqaviy antroponimlarning mavzuiy ko’lami uning ijtimoiy hayotdagi o’rni va foydalanish doirasiga mos tarzda shakllanib, asosan, tabiat (inson ham biologik tur sifatida mana shu doiraga kiradi), atrof-muhit, maishiy hayot, ijtimoiy munosabatlar, siyosiy-ijtimoiy hayot tarzi, inson idroki anglaydigan darajadagi borliqni ifoda etuvchi birliklardan iborat bo’ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. Fathiddinova I. Antroponimlar lingvomadaniy kod sifatida. “Zamonaviy dunyoda innovatsion tadqiqotlar: Nazariya va amaliyot” nomli ilmiy, masofaviy, onlayn konferensiya materiallari. –Toshkent. 2023. – B.11-12.
2. O’zbek tilining izohli lug’ati. II tom. –Toshkent. 2023. –B.935
3. Ашимханова Ф.М. Қазақ тилиндегі антропонимдердинг лингвомедени жүйеси. Филол. фанлари канд. ...дисс. Алматы, 2007. –Б.18.
4. Бегматов Э. Ўзбек исмлари маъноси. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси давлат илмий нашриёти, 1998. – Б.119.
5. Мухаммедова З.Б. Исследование по истории туркменского языка XI-XIV вв. – Ашхабад, 1973. –Б.45.

⁵ O’zbek tilining izohli lug’ati. II tom. –Toshkent. 2023. –B.935.